



**TRAXEYANING CHANDIQLI TORAYISHIDA T-STEND YORDAMIDA
REKONSTRUKTIV- PLASTIK TIKLASH JARROHLIK
AMALIYOTINING ZAMONAVIY JIHATLARI**

Mualliflar: Prof. Eshonxodjayev O.D., Ph.D. Tursunov N.T., T.f.d.
Paxomov G.L., T.f.d. Irisov O.T., Rixsiyev Z.G., Otamirzayev Q.A., Baxromova
O.A., Shamsiyev S.B. (Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti)

Kirish: Traxeyaning chandiqli torayishi (stenoz) — nafas yo'llarining jiddiy patologiyasi bo'lib, u ko'pincha jarrohlik aralashuvlari, intubatsiya, traxestomiya yoki yallig'lanish jarayonlaridan so'ng rivojlanadi. So'nggi yillarda traxeyaning funksional holatini tiklash va nafas yo'lini saqlab qolish maqsadida T-stend (Montgomery T-tube) qo'llash keng tarqalmoqda.

Kalit so'zlar: traxeyaning chandiqli torayishi, T-stend, rekonstruktiv jarrohlik, Montgomery T-tube, nafas yo'lini tiklash.

Maqsad: Traxeyaning chandiqli torayishida T-stend yordamida rekonstruktiv - plastik tiklash usulining samaradorligi, afzalliklari va zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish.

Ilmiy tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqotda 2015–2023-yillar davomida Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurugiya ilmiy-amalyot markazi O'pka va ko'ks oraliq'i bo'limiga traxeyaning chandiqli torayishi tashxisi bilan davolangan 143 nafar bemorlarning kasallik tarixi retrospektiv tahlil qilindi. Bemorlarga jarrohlik yo'li bilan T-stend o'rnatish orqali davolandi. Operatsiya oldi va keyingi davrda bronxoskopiya, KT, spirometriya yordamida natijalar baholandi.

Natijalar:

- T-stend o'rnatilgan bemorlarning 90–95% ida nafas olish funksiyasi to'liq yoki qisman tiklandi.
- Stend joylashtirishdan so'ng erta asoratlari minimal bo'lib, kech asoratlari (granulyatsiya, infeksiya, restenoz) 5–10% hollarda kuzatildi.



- T-stend yordamida tiklash operatsiyalari bemorlarning hayot sifatini oshirdi, qayta stenozlash ehtimoli esa sezilarli kamaydi.

Muhokama: Traxeyaning chandiqli torayishida T-stend yordamida stendlash va bujlash muhim rekonstruktiv plastik amlyot sifatida o'zini oqlagan. U nafaqat nafas yo'lini ochiq holda saqlaydi, balki traxeyaning shilliq qavatini reepitelizatsiya jarayoniga yordam beradi. Zamonaviy yondashuvlarda gulyukokortikosteroidlar yordamida applikatsiyon terapiya o'tkazish, giposensibillashgan silicon materiallardan foydalanish va endoskopik nazorat ostida joylashtirish keng joriy etilmoqda.

Xulosa:

T-stend yordamida traxeyaning chandiqli torayishida rekonstruktiv - plastik tiklash jarrohlik amalyoti optimal polliativ amalyot sifatida qolmoqda, funksional natijalari yuqori va bemorlarning hayot sifatini yaxshilovchi zamonaviy usul hisoblanadi. Individual yondashuv, muntazam endoskopik nazorat va stend materialini to'g'ri tanlash davolash samaradorligini belgilaydi.